

MASHRAB HAYOTI VA IJODI

Omonova Zilola*Farg'ona davlat universiteti filologiya
fakulteti 3-bosqich talabasi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada shoir, mutafakkir Boborahim Mashrab hayoti va ijodi, taxalluslari, tug'ilgan joyi haqida malumotlar keltirilgan. Mashrab nafaqat o'z davrining balki keyingi asr adabiyotining ham yetuk namoyondalaridan biri bo'lib qolgan.

Kalit so'zlar: Boborahim Mashrab, Namangan, Andijon, "Mabdai Nur", Mijmar.

O'zbek shoiri, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyondasi Boborahim Mashrab Mulla Vali oilasida dunyoga kelgan. Mashrabning tug'ilgan yili va joyi biror manbada aniq ko'rsatilmagan. Uni goh namanganlik, goh andijonlik deyishgan. Filologiya fanlari doktori A.Abdug'afurov shoirni Namanganda tug'ilgan deb hisoblaydi: "Adabiy-tarixiy manbalarning ko'pchiligida shoirning tug'ilgan yeri Namangan deb ko'rsatiladi. Shu asosda va tug'ilgan shahriga nisbat berilib shoir Mashrab(i) Namangoniy deb yuritilgan, shu nom bilan xalq orasida, adabiyot olamiga shuhrat tutgan",-deb ta'kidlaydi. Filologiya fanlari nomzodi M.Zokirov o'z kitobida Maleho Samarqandiyning "Muzakkir ul-ashob" tazkirasidan shoir haqidagi quyidagi malumotlarni keltiradi:" Mashrab-Qalandar Rahimboboning taxallusi. Asli Andijon viloyatidan bo'lib, o'smirlik chog'larida ilm fazilat kasb etish tilagida Namanganga bordi".

Rahimbobo Mashrabning o'ldirilgan yili aniq. Bu tarix manbalarida 1123 hijriy(1711 milodiy) yil ekanligi zikr etilgan.

Shoirning otasi(Mulla Vali) kambag'al kosib edi. Ba'zi manbalarda uni bo'zchi, ba'zi manbalarda esa o'tinchi bo'lgan deyishadi. Mulla Vali juda barvaqt vafot etgach, ularning oilasi ona yurti hisoblangan Namangan shahriga, ona avlodlari huzuriga ko'chib kelishadi. Namanganda Mullo Bozor Oxund qo'lida o'qiydi. Undan so'ng Qashqarga Ofoq Xo'ja huzuriga borib bilimini yanada chuqurlashtiradi. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma'lumotlar beruvchi manba yo'q. Uning o'z asarlarini to'plab, devon yoki biror majmua tuzganligi ma'lum emas. Faqat "Devoni Mashrab", "Devonai Mashrab", "Eshoni Mashrab", "Hazrati shoh Mashrab" nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida tarqalgan qissalardangina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi noma'lum) shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati ma'lum tartib va izchillikda bayon etiladi.

Shoir merosi ,asosan, "Qissai Mashrab" asari orqali yetib kelgan. Asarda shoirning Rindiy, Mahvash, Zinda, Mansur taxalluslari ham uchraydi. 1977-yilda "Mabdai Nur" (Jaloliddin Rumiy "Masnaviyi ma'naviy" asariga sharh) Boborahim Mashrabning asari sifatida chop etildi. Mashrab fors tilida ham bir necha she'riy turlarda yetuk namunalar yaratgan.

Mashrab ijodiyotidan eng ko'p bahramand bo'lgan, unga ergashgan shoirlardan biri 17-asrning 2-yarmi va 18-asr boshlarida yashab ijod etgan zamondoshi, zullisonayn shoir Muzaffariddin Mijmardir. Rahimbobo Mashrabga zamondosh bo'lgan bu shoir Mashrab bilan tez-tez uchrashib turgan, ijodiy hamkorlikdagi bo'lgan. U Mashrab she'rlarini ko'p o'qir va undan ilhomlanib, juda ko'p tatabbu' (o'xshatma, nazira, ergashish)lar bitgan. Mashrab ijodi faqat shoir Mijmarga emas, balki 18-19-asrlarda yashab ijod etgan o'zbek va tojik shoirlarining katta bir qismiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol tariqasida, Nodira, Huvaydo, Qoriy, Furqat, Hamza kabi shoirlar uning g'azallariga taxmis va naziralar bag'ishlagan.

Xulosa

Mashrabning hayoti va ijodi mashaqqat, iztirob, izlanish va haqiqat yo'lidagi kurash bilan to'la bo'lgan. U o'zining o'tkir so'zi, jasur qarashlari bilan milliy adabiyotimizda o'chmas iz qoldirdi. Mashrab ijodi bugungi kunda ham insonlarni halollik, adolat va poklikka chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiev E. Mashrab.-Toshkent:Fan,1990.
2. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. https://arboblar.uz.
4. Mashrab qissasi.-Toshkent:Sharq,1991.